Биография

Ravshanxo‘Ja Rasulov



Ravshanxo‘ja Rasulov istiqlol davri o‘zbek tilshunosligining yirik vakili, sermahsul nazariyotchi olim, filologiya fanlari doktori (1989), professor (1990).

Ravshanxo‘ja Rasulov 1946-yilda Toshkent shahrida tug‘ildi. 1965-yilda maktabni tugatdi. 1965-1970 yillarda O‘zMU (sobiq ToshDU)ning o‘zbek filologiyasi fakultetida o‘qidi.

1975-yilda “Alpomish” dostonida so‘zlar orasidagi sintaktik munosabatning ifodalanishi” mavzusida nomzodlik, 1989-yilda “O‘zbek tilidagi holat fe’llari va ularning valentligi” mavzusida doktorlik dissertasiyasini himoya qildi.

Ravshanxo‘ja Rasulov o‘zbek tilshunosligining leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya, sintaksis, umumiy tilshunoslik, nutq madaniyati va o‘zbek tili fanlari bo‘yicha fundamental tadqiqotlar yaratgan olimdir.

Uning asosiy asarlari: 1. “O‘zbek tilidagi holat fe’llari va ularning obligator valentliklari”(1989). 2. “O‘zbek tili fe’llarining semantik strukturasi”(1-qism, 1990). 3. “Глаголы состояния в узбекском языке и их валентность”(1991). 4. “Leksikologiyani o‘rganish”(hamkor, 1992). 5. “O‘zbek tili fe’llarining semantik strukturasi” (2-qism, 1993). 6. “O‘zbek tili sistem leksikologiya asoslari”(hamkor, 1995, 2021). 7. “O‘zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug‘ati” (hamkor, 1997). 8. “O‘zbek tili fe’llarining ma’no tuzilishi” (2001, 2005, 2008, 2012). 9. “O‘zbek tili” (hamkor, 2004). 10. “Nutq madaniyati” (2004). 11. “O‘zbek tili” (hamkor, 2005, 2006, 2009, 2013). 12. “Umumiy tilshunoslik. Tilshunoslik tarixi. 1-qism” (2005). 13. “Umumiy tilshunoslik. Tilshunoslikning nazariy masalalari. 2-qism” (2006). 14. “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati” (hamkor, 2006, 2008, 2009, 2018, 2020). 15. “O‘zbek tili nazariy grammatika muammolari” (2019). 16. “Umumiy tilshunoslik” (2007, 2010, 2017, 2021, 2022) va boshqalar.

Биография



Professor Ravshanxo‘ja Rasulovning maqolalari o‘zbek, rus va ingliz tillarida Rossiya, AQSH, Turkiya, O‘zbekiston, Tatariston va Ozarbayjon davlatlarida nashr qilingan. Uning turkologiyada holat fe’llariga oid qator monografiyalarida ilk bor ushbu fe’llarni ilmiy-nazariy va falsafiy jihatdan mukammal o‘rganib chiqdi.

.Rasulov tilshunoslik fanlari sohasida eng murakkab ilmiy-nazariy-falsafiy fan hisoblangan, o‘zbek tilshunosligida qariyb chorak asrdan ortiq vaqt davomida yaratilmagan “Umumiy tilshunoslik” fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarining muallifidir. U istiqlol davri o‘zbek tilshunosligida ilk bor mazkur fan bo‘yicha fundamental o‘quv qo‘llanmalar (2005, 2006, 2007) va darsliklar (2010, 2021, 2022) yaratdi. Ushbu darsliklar tilshunoslik nazariyasi bo‘yicha respublikamizda yagona eng mukammal va to‘liq o‘quv adabiyoti sifatida tan olingan. Olim o‘zbek tilshunosligida fe’l valentligi yo‘nalishida maktab yaratdi, fan nomzodlari va fan doktorlarini tayyorladi. Olimning ustozi H.Ne’matov hamkorligida va rahbarligida yaratilgan "O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" asrida turkiy tilshunoslikda ilk bor jahon sistem–struktur tilshunosligining eng yaxshi jihatlari o‘zining aniq ifodasini topdi. Shuningdek, tadqiqotda shu kungacha o‘zbek leksikologiyasida erishilgan yutuqlar umumlashtirildi, chuqurlashtirildi, bir butun holda kitobxonga taqdim etildi.

Olim nazariy-falsafiy yo‘nalishdagina emas, balki amaliyot bilan bog‘liq – shu kungi til siyosatining dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan davlat tilini o‘rganish borasida ham asarlarga e’tibor berib kelmoqda. Aniqrog‘i, hamkorlikda oliy o‘quv yurtlari hamda o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarining rus guruhi talabalari uchun lotin yozuvida “O‘zbek tili” darsligi va o‘quv qo‘llanmasi nashr qilindi.

Биография



R. Rasulovning shogirdi bilan hamkorlikda yaratgan tilimiz boyligini namoyon etuvchi parafrazalarning izohli lug‘ati ham bo‘lib, ushbu asar shu yo‘nalishdagi dastlabki tadqiqot sifatida e’tiborga loyiqdir.

R.Rasulov Nizomiy nomidagi TDPU va Toshkent viloyati Chirchiq DPIda 50 yildan ortiq vaqt davomida barakali mehnat qilib, ta’lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etib kelmoqda. Olim 1991 yildan boshlab, shu kungacha “O‘zbek tili, adabiyoti va folklori” instituti, O‘zMU, O‘zDJTU va Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi doktorlik va nomzodlik himoya kengashlarining a’zosi, rais muovini, metodologik va ilmiy seminarlar raisi sifatida faollik ko‘rsatdi. R.Rasulov 1993-1995, 1999-2002, 2018-2022 yillarda O‘zR OAKda filologiya bo‘yicha ekspert, rais muovini va rais sifatida ilmiy tadqiqot ishlariga baho berdi. R.Rasulov 1994 yilda O‘zbekiston delegatsiyasi tarkibida Turkiyaning Izmir shahrida bo‘lib o‘tgan “2-Do‘stlik, qardoshlik va ish birligi” kongressida ishtirok etdi, davra suhbatlarida qatnashdi. R.Rasulov 2001-yili Toshkent shahri Uchtepa, 2006-yili Yakkasaroy tumani va 2021-yili Chirchiq shahar hokimiyatlari tomonidan mustaqillikning 10, 15 va 30 yilligi nishonlari bilan taqdirlandi. R.Rasulov O‘zbekiston xalq ta’limi a’lochisi, O‘zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi a’zosi, Nizomiy nomidagi pedagogika universitetida xizmat ko‘rsatgan professor.Olim respublika o‘quv adabiyotlari tanlovlarining g‘olibi (2006, 2007, 2011, 2020), ta’lim innovatori. R.Rasulov katta olim, tajribali, mohir pedagog, ilm va shogirdlar homiysi, erkin kurash bo‘yicha sport ustasi sifatida faol xizmat qilib kelayotgan shaxsdir, ustozdir.